

№ S/2 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоэвна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлифи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 - ТАРИХ ФАНЛАРИ

Рахманова Мавлуда Эркин қизи

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССРГА ХАЛҚАРНИ МАЖБУРИЙ КЎЧИРИШ
СИЁСАТИ ТАРИХШУНОСЛИГИ 9-16

Икромжонов Акмалжон Махмуджонович

ФАХРУДДИН ЎЭЖАНДИЙ ЯШАГАН ДАВРДА МОВАРОУННАҲР ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ
ВАЗИЯТ ВА ИЛМ ФАН РИВОЖИ 17-25

Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли

ТУРКИСТОН ЛЕГИОННИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН 26-34

Хамирова Дилфуза Улуғбек қизи

НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЖОДКОРЛАР НИГОХИДА 34-41

Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli

SULTON RAXMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI 42-49

Махмудов Махмуд Авазович

ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ ШАРОИТИДА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ИЖТИМОЙ
ТАБАҚАЛАШУВИ 50-58

Mamatov Bektosh Tolibjon o`g`li

YALANGTO`SH BAHODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR 59-66

08.00.00 - ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Muminova Elnoraxon Abdulkarimovna

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O’TISHNING XORIJY TAJRIBALARI 66-75

Файзуллоев Мирсаид Шухратович

СОЛИҚ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДА КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ
АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ 76-85

Кахарова Нилюфар Эркинжоновна

OKR МЕТОДОЛОГИЯСИ ХАҶИДА ТУШУНЧА, МАҶСАДИ, АФЗАЛЛИГИ, ЖАРАЁНДАН
КУТИЛАДИГАН НАТИЖАЛАР 86-91

Насруллоев Ҳаётжон Хабибуллоевич

СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 92-99

Raxmonov Mirvoxid Rajabovich

HUDUDNING INVESTISION JOZIBADORLIGI OMILLARINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 100-107

Насруллоев Ҳикматулло Хабибуллоевич

ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ УЧУН ЗАМОНАВИЙ РАҶАМЛИ
ЕЧИМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 108-115

Тоштемиров Шоҳруҳ Тошпўлатович

ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ КАПИТАЛ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ 116-120

| | |
|---|---------|
| Насимов Равшанжон Азимович | |
| МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ ЮКИНИНГ СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ | 121-130 |
| Nabieva Nilufar Muratovna | |
| MARKETING AUDIT AND ITS IMPACT ON IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY..... | 131-139 |
| Отамуродов Нуриддин Нажмиддинович | |
| КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ COVID-19 ИНҚИРОЗ ДАВРИДА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ МАСАЛАЛАРИ | 140-148 |
| Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li | |
| TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITISIYALARNI JALB QILISHDA MAMLAKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH..... | 149-155 |
| Yusupov Farruxbek Farxodovich | |
| O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XİZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 156-162 |
| Kunduzova Kumrixon Ibragimovna | |
| KİCHIK BİZNES KORXONALARIDA MOLİYAVİY REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISHNING XUSUSİYATLARI | 163-172 |
| Зиёдинова Нилуфар Зариф қизи | |
| ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ | 173-179 |
| Насимджанов Юнусжон Зоҳидович | |
| МАМЛАКАТИМИЗ ҲУДУДЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ ЕР СОЛИГИ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 180-187 |
| 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| Ҳакимов Акмалжон Мирзаганиевич | |
| ЦИВИЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОҲИЯТИ | 188-192 |
| Холмирзаев Нодиржон Низомжонович | |
| УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ | 193-198 |
| Boboqulov Abror Abdug'ani o'g'li | |
| "OPEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE GPT" TIL MODELINING FALSAFIY TAHLILI | 199-204 |
| Ялгашев Бунёд Махмудович | |
| САМАРҚАНД ВОҲАСИ ЭТНИК ГУРУХЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЛАРНИГ ЯШАШ ТАРЗИ | 205-213 |
| Safarov Maqsudali | |
| ABU BAKR AR-ROZIYNING "TIBBI RUHONIY" (RUH TIBBIYOTI) ASARIDA G'AZABNI VA INSONNING O'Z KAMCHILLIKLARINI BARTARAF QILISH HAQIDA MULOHAZALAR | 214-219 |
| Сохибова Лола Жонибоевна | |
| ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ – МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ | 220-224 |

| | |
|---|---------|
| Адашова Махсума Махмудбоевна | |
| ИМОМ АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ВА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ – ДУНЁ ОЛИМЛАРИ НИГОХИДА..... | 225-231 |
| Mukhammediyarova Akhmaral | |
| PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF NOOSPHERIC DEVELOPMENT IN THE ECOLOGICAL AND GLOBAL SECURITY SYSTEM | 232-239 |
| 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| Tilovov Ozod, Isoqulova Gulxon | |
| FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING RAMZIY MA'NOLARI..... | 240-245 |
| Surmilova Elena | |
| GENDER STUDIES IN LINGUISTICS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING | 246-252 |
| Олимова Диляфрузхон Бахтиёржон қизи | |
| ТИЛШУНОСЛИКДА БАҲО КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ | 253-257 |
| Djurayev Dilshod Mamadiyarovich, Radjabova Madinabonu Raimovna | |
| XITOY TILI GRAMMATIKASIDAGI “NATIJA TO'LIQLOVCHISI (结果补语)..... | 258-262 |
| Azzamov Yusufjon Radjaboy o'g'li, Jo'rayeva Xayriniso Shavkat qizi | |
| EKOJURNALISTIKANING QO'LLANILISH KATEGORIYALARI | 263-268 |
| Fillipova Olga Igorevna | |
| CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES AS A CATEGORY OF REDUNDANCY..... | 269-278 |
| Ismoilova Dilorom Rustamjon kizi | |
| LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD “MURDER”..... | 279-285 |
| 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| Ильясов Баходир Ильясович | |
| ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMI VA UNING RIVOJLANISH YO'LLARI | 286-293 |
| Чориева Хуршидабону Хуррам қизи | |
| ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИНГ ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ИШТИРОКИ | 294-299 |
| Хаётов Анвар Хусанович | |
| ХАЛҚАРО ОЛИМПИЯ ҚЎМИТАСИННИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ҲУҚУҚ СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ | 300-307 |
| 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| Журабекова Хабиба Мадаминовна | |
| РЕЧЕВАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ | 308-315 |

Tursunova Aziza Xoshimovna

WEB TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMNI NAZORAT QILUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR
YARATISH USULLARI 316-321

Oblanazarov Faxriddin Asadovich

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN-
QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH 322-329

Isroilova Dildora Muxtarovna, Solijonova Dildora Ulugbekovna

IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINI O'QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING
O'RNI 330-335

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA
OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI 336-342

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI 343-350

07.00.00 – Тарих фанлари

Mamatov Bektosh Tolibjon o`g`li,
Samarqand davlat universiteti, magistrant
e-mail: bektosh.mamatov@bk.ru
ORCID: <https://orcid.org/.0009-0006-9471-9471>

YALANGTO`SH BAHODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR

Annotatsiya. XVI-XVII asrlar o`zbek davlatchiligi tarixida muhim rivojlangan bosqichlardan biri bo`lib hisoblanadi. Buxoro xonligida hukmronlik qilayotgan ashtarxoniyalar sulolasining o`z davrining muhim siyosiy arboblaridan bo`lgan Bahodir Yalangto`sh bilan munosabatlarini o`rganish, mazkur davr tarixining biz uchun muhim bo`lgan qirralarini sharhlashga va oydinlashtirishga, tarixiy shaxslarni personografik jihatdan har tomonlama o`rganishga yordam beradi. Ushbu maqolada Yalangto`sh Bahodirning ashtarxoniy hukmdorlar davridagi faoliyati, ichki va tashqi siyosatda muhim o`rinni egallaganligi muhokama qilinadi va tavsif beriladi.

Kalit so`zlar: Yalangto`sh Bahodir, Imomqulixon, "Bahr ul-asror", amir, otaliq, hokim, ashtarxoniyalar, Buxoro, Eron, Hindiston, qozoglar, Balx, Samarqand, Kohmard. o'

Маматов Бектош Толибжан ўғли
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова, магистрант

ЯЛАНГТУШ БАХАДУР И АШТАРХАНСКИЕ ПРАВИТЕЛИ

Аннотация. XVI-XVII века считаются одним из важных развитых этапов в истории узбекской государственности. Изучение взаимоотношений династии Аштарханидов, правившей Бухарским ханством, с Бахадиром Ялангтошем, одним из важных политических деятелей своего времени, помогает осмыслить и уточнить важные для нас аспекты истории этого периода, всесторонне изучить исторических деятелей и даст персонографического перспектива. В данной статье рассматривается и описывается деятельность Ялангтоша Бахадура в период Аштархани, важное место, которое он занимал во внутренней и внешней политике.

Ключевые слова: Ялангтош Бахадир, Имамкулихан, «Бахр ул-асрап», эмир, отец, правитель, Аштарханиды, Бухара, Иран, Индия, казахи, Балх, Самарканд, Кохмард.

Mamatov Bektosh Tolibjon o`g`li,
Samarkand State University
named after Sharof Rashidov, master`s student

YALANGTUSH BAKHADIR AND ASHTARKHANY RULERS

Abstract. XVI-XVII centuries are considered one of the important developed stages in the history of Uzbek statehood. Studying the relationship of the Ashtarkhanid dynasty ruling the Bukhara Khanate with Bahadir Yalangtosh, one of the important political figures of his time, helps to interpret and clarify the aspects of the history of this period that are important for us, to comprehensively study historical figures from a personographic and will give perspective. This article discusses and describes the activities of Yalangtosh Bahadur during the Ashtarkhani period, the important place he occupied in domestic and foreign politics.

Key words: Yalangtush Bakhadir, Imamqulikhan, "Bahr ul-asrar", emir, father, ruler, Ashtarkhanids, Bukhara, Iran, India, Kazakhs, Balkh, Samarkand, Kohmard.

DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N07>

Kirish

Buxoro xonligidagi ashtarxoniyalar davri tadqiq qilinayotganda bevosita otaliq lavozimida faoliyat yuritgan Bahodir Yalangto'shbiyga to'xtalib o'tiladi. Ayniqsa, shayboniylarning hokimyatdan ketishi va ashtarxoniyarlarning (joniylar) taxtni egallab, unda mustahkamlanib olishida uning xizmatlari katta. Ashtarxoniy hukmdorlar bilan birgalikda ularga sadoqat bilan xizmat qilgan Yalangto'shbiy faoliyatida mardlik, jasurlik hislatlari sezilib turadi. Buxoro xonligining XVII asr birinchi yarmidagi ichki va tashqi siyosat masalalarida hukmdorlarning Bahodir Yalangto'sh bilan o'zaro maslahatlashib ish ko'rishlari, uning davlatda hukmdorlardan keying nufuzli o'rinni egallaganidan dalolat beradi. Tashqi aloqalarda vujudga kelgan muammolarni hal etishda hukmdorlar amir Yalangto'shbiyni yuborganligi va uning zarur paytlarda diplomatik manevrarni bajarganligi bu borada yaqqol ustunlik Buxoro xonligi tomonda bo'lishini ta'minlagan. Shu o'rinda ashtarxoniy hukmdorlardan Boqi Muhammad(1601-1605), Imomqulixon(1611-1642), Nodir Muhammad(1642-1645) va Abdulazizzon(1645-1681) davrida Yalangto'shbiy faoliyatiga alohida tadqiqiq qilinishi mazkur davr uchun muhim tarixiy jihatlarni ochib berishga yordam beradi. Xususan, Eron, Afg'oniston va qozoqlar bilan bo'lgan munosabatlarda muammoli vaziyatlarni Yalangto'shbiy aralashuvi orqali hal etilishi bu mavzuning ahamiyatlilik darajasini oshiradi.Ichki siyosatda esa, hukmdorlarga qarshi olib borilgan fitnalar, bosh-boshdoqliklar natijasida vujudga kelgan hokimyatga qarshi nizolarni bostirishda ham bu tarixiy shaxsning o'rni muhim hisoblanadi.

Yalangto'sh Bahodir qo'l ostida harbiy qo'shindan foydalanib qo'shni Turkiston va uning atrofidagi hududlarga yurishlarni mustaqil amalga oshirgan.Qo'shni davlatlardan uning nomiga sovg'a-salomlar kelishini uning nomi mashhur bo'lganligidan dalolat beradi. Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy xayotida amalga oshirilgan islohotlar, chiqarilgan farmonlarda Yalangto'shbiy Bahodirning nomi birinchilardan bo'lib tilga olinishi, unga yuklatilgan vazifalar hukmdor tomonidan maxsus belgilanganligini ko'rish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi

Biz tadqiq qilinayotgan ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlarni Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" (Sirlar dengizi) asaridan olish o'rinci bo'ladi. Unda amir Yalangto'shbiy 'jasur no'yon, ish bilgan amir" sifatida ta'riflanadi [2;228-b]. Undan tashqari Muhammad yusuf Munshiyning "Muqimxon tarixi" asarida ham mavzuga doir ashtarxoniy hukmdorlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar bayoni berilgan bo'lib, undan Yalangto'shbiy faoliyatiga doir muhim ma'lumotlarni olishimiz mumkin.Yuqoridagi manbaalarga qo'shimcha ravishda Bo'riboy Ahmedovning "История Балха" (XVI –первая половина XVIII в) [3] , "Тарихдан сабоқлар"[2] kitoblarida ham Bahodir Yalangto'sh va hukmdorlar o'rtasidagi munosabatlariga doir ma'lumotlar, tarixiy faktlar mavjud hisoblanadi. So'ngi yillardagi izlanishlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2019-yil sentabr oyida Samarqandda "Bahodir Yalangto'shning Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayotida tutgan o'rni" mavzusi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiya materillarida ham bu boradigi muhim ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Unda Bahodir Yalangto'shning siyosiy faoliyati , tashqi siyosatda yuritgan diplomatik munosabatlari bo'yicha bir qator tarixchi olimlar o'z maqola va tadqiqot ishlari bilan qatnashdilar. Bularga

misol sifatida, G.Taniyevaning “Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни” [9], D.Sangirovaning “Ялангтўш Баҳодурнинг Марказий Осиё ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” [8], Т.Omarbekovning “Ялантуш-Бахадур – крупный политический деятель средневекового Маувереннахра”, Z.Muqimovning “Ялангтўшибий Баҳодирнинг давлат фаолиятини ўрганилишига доир”[6] singari tadqiqot ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, Akbar Zamonovning “Buxoro tarixi asari”[10] da esa ashtarxoniy hukmdorlarning hokimyatga kelishi va ular davridagi ichki va tashqi aloqalar hamda Bahodir Yalangto'sh haqida faktlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasining ahamiyati mavjud tarixiy manbalar, xususan mazkur davr manbalari, tarixchilar tomonidan yozilgan adabiyotlar asosida Yalangto'sh Bahodirning ashtarxoniy hukmdorlar bilan bo'lgan munosabtalriga doir jihatlarni ochib berishdan iboratdir.Unga oid manbalardan to'plangan materiallar asosida har bir ashtarxoniy hukmdorlar faoliyati , Yalangto'shbiyning ular bilan birgalikda umumiy dushmanga qarshi olib borgan harakatlarining tarixiy jarayonlarga ta'sirini o'rghanish, mazkur mavzuning nazariy konseptual asoslарини yaratish, ularни qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, hamda Buxoro xonligi davrini o'rghanishning yangi aspektini qo'llash orqali, ushbu davr xususiyatlarini yanada batafsil yoritishga xizmat qilishdan iboratdir. Mavzuni yoritishda tarixiy dalillarni aniqlash va ularning interpretatsiyasi (sharhlash, izohlash), mantiqiylik, obyektivlik, tarixiylik metodlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar

Dastlab ashtarxoniy larning hokimyat tepasiga kelishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak ,yurtimiz hududida XVI asr boshlarida asos solingen shayboniylar sulolasining yetuk namoyondalaridan biri Abdullaxon II (1557-1598) vafotidan so'ng taxtga o'tirgan o'gli Abdulmo'min davrida davlat yaxlitligi ta'minlanmadı. U ko'p o'tmasdan halok bo'ldi, taxtga esa Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II o'tiradi. Uning davrida qozoq sultonlari bilan munosabatlar ham ancha jiddiy edi. Natijada, Pirmuhammad bilan Boqi Muhammad o'rtasida 1601-yildan munosabatlar keskinlashib boradi. O'zaro kurashlar natijasida, Boqi Muhamamad g'olib keladi.Shunday qilib, yuzaga kelgan turli muammolar, ichki va tashqi vaziyatda mavjud kurashlar natijasida hokimyat shayboniylardan ashtarxoniylar sulolasiga o'tdi.

Ma'lumki, 1556-yilda Astraxan (Xoji -Tарxон) xonligi ruslar tomonidan zabit etilgach, asli To'qayTemur nasliga mansub Yormuhammadxon oila a'zolari bilan Buxoro xoni Iskandarxon xuzuridan boshpana topishadi. Buxoro xoni Iskandarxon qizi Zuhra xonimni Yormuhammadxonning og'li Joni Muhammadga turmushga beradi. Bu nikohdan uch farzand, ya'ni, Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhamamad dunyoga keladi. 1601-yilda Joni Muhammad taxtdan vos kechishga majbur bo'ladi.Bunga sabab esa, u ona tomonidan ham, ota tomonidan ham Chig'atoy, Amir Temur yoki movarounnahrlik shayboniylar avlodidan emas edi. U mamlakatda qonuniy asos uchun ona tomonidan mavorounnahrlik shayboniylar avlodiga mansub bo'lgan o'g'illariga taxtni topshiradi.1601-yilda taxtga Boqi Muhammad keladi, lekin shunga qaramasdan 1601-1603-yillarda Joni Muhammad xon deb e'tirof etiladi va uning nomiga xutba o'qitiladi. Shu sababli ham sulola nomini "joniyalar" deb atashganini keying tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin [9.189 b].

Yalangto'sh Bahodir dastlab shayboniylardan Abdullaxon II nazariga tushadi. Uning homiyligida esa 1590-1593-yillarda maxsus harbiy mакtabda o'qiydi. Demak,Yalangto'shning

yoshligidan boshlab yaxshi harbiy ta'lim ko'rganligi, hukmdor nazariga tushishi uni kelajakda davlatning ham harbiy, ham siyosiy hayotida muhim rolni o'ynashini belgilab bergan bo'lsa kerak. U davlat oldida munosib vazifalarni bajarganligi sababli 1593-1595-yillarda Bulung'ur, Loyish, Kattaqo'rg'onda tumanboshi lavozimida ishlaydi[7.1b].

Yalangto'shibiy o'ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarib, o'zini har tomonlama vatanga sodiqligi, qo'rmasligi, o'tkir zehn va aql sohibi ekanligi, shu bilan birgalikda, harbiy jang san`atini puxta egallaganligi bilan ajralib turar edi. Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" (Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi) asarida u "jasur nuyon, ish bilgan amir" sifatida ta'riflanadi[2.228b]. Ba'zi tadqiqotlarda uni 1595-1598-yillarda Bag'dodda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Ko'rinib turibdiki, Yalangto'shibiy har tomonlama yuksak aql va salohiyat sohibi bo'lish bilan bir qatorda, diniy bilimlarni ham egallagan.

XVII asr boshlarida Markaziy Osiyodagi murakkab tarixiy sharoit Yalangto'shibiyni mavjud kurashayotgan guruhlar o'rtasida bir tomonni tanlab, kurashishga undadi. Natijada, u ashtarxoniyalar sulolasining sadoqatli vakili sifatida namoyon bo'ldi. Mavjud vaziyatda Bahodir Yalangto'shning faol harakat qilishi uni tarix sahnasiga olib chiqdi desak, xato bo'lmaydi.

Manbaalarda qayd etilishicha, Bahodir Yalangto'sh o'n to'qqiz yoshidan boshlab Buxoro xoni Dinmuhammad homiyligiga olinadi. O'sha davr uchun muhim ma'lumotlarni beradigan Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida "jasur no'yon, ish bilgan amir; Olchin qabilasidan chiqqan ; asl ismi Xatoy Bahodir. Dinmuhammad zamonida u Sag'noqning Azoq mavzeyidan kelib uning xizmatiga kirdi; say-harakatlari orqasida uning yaqin kishilaridan bo'lib oldi"[2.228b] deb yoziladi. Ko'rinib turibdiki, yosh bo'lishiga qaramay Yalangto'shibiyning sadoqati, serg'ayratligi uni hukmron sulola vakillarining yaqin safdoshlaridan bo'lishiga zamin yaratdi.

Din Muhamamdxondan so'ng xonlik taxtini egallagan Boqi Muhammad davrida (1601-1605) Bahodir Yalangto'sh hukmdorning maslahatchisi vazifasini bajara boshlaydi. Bu mansabda Yalangto'shibiy mamlakatning tashqi sarhadlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ichki boshqaruv tizimini tartibga solishga ham harakat qila boshlaydi. Boqi Muhamammd vafotidan so'ng taxtga Vali Muhamammd egalik qiladi. Lekin aynan shu davrdan boshlab, ichki siyosatda boshboshdoqlik, xon hokimyatiga bo'ysunmaslik, o'zaro kurashlar avj oladi. Uning katta akasi Din Muhamamdnинг o'g'illari Imomquli va Nodir Muhamammd uning hokimyatini tan olamydi. Shunday vaziyatda , Vali Muhamammd ular bilan murosa yo'lini tanlashga majbur bo'ladi. Xususan, Imomquliga Samarcand noibligi, Nodir Muhammadga Shahrisabz noibligi beriladi va Yalangto'shibiy Olchin unga otaliq etib tayinlanadi[9.192b]. Tashqi siyosatda esa, Xuroson hududi Buxoro va Eron davlatlari manfaatlari to'qnash keladigan hududga aylanadi. Chunki Huroson o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy jixatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan alohida o'ringa ega edi. Shu sababli ham bu hudud goh ashtarxoniyalar, goh Eron safaviylari tasarrufiga o'tib turgan[6.2 b].

Ashtarxoniy sulola vakillari o'rtasida XVII asr boshlarida siyosiy kurash avj oladi. Vali Muhamamdnинг mavjud hokimyati zaiflashib, obro'sizlanib borar edi. Kurashda unga qarshi Nodir Muhamamdxon(1642-1645) va siyosiy mavqeyi oshib borayotgan sulola vakillaridan Imomqulixon (1611-1642) turar edi. 1611-yildan amirlardan Nodirbek, Bek o'g'li, Muhamammd Boqi qalmoq va Xoja Hoshimlar bilan bir safda Yalangto'sh Bahodir o'z qo'shini bilan Imomqulixon tomonga o'tib ketadi[7.3b]. Demak, Yalangto'shibiy Bahodir o'z to'plagan tajribasi

va aqliga tayangan holda mavjud vaziyatdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, o‘zi va davlat kelajagi uchun foydali bo‘lgan tomonni tanlagan.

Bu haqda to‘liqroq ma’lumot beradigan “Bahr ul-asror” asarida “Samarqand amirlaridan Yalangto‘sbiy otaliq, Muhammad Boqi qalmoq, Nodirbek Shukurbiy saroy va boshqalar Imomqulixonni qo’llab-quvvatlaydi”,-deb yoziladi[6.2b]. Katta siyosiy kurashda Yalangto‘s Bahodirdek qo‘l ostida katta harbiy kuchga ega amirlarning u yoki bu tomonda turishi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli ham ular Imomqulixon tomonda turishi, Vali Muhammadning mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Bu esa Imomqulixon hokimyatining amalda mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada, Vali Muhammad oilasi va qo‘l ostidagi amirlari bilan bu kurashda yengilib, Chorjo‘y orqali Eronga qochib ketadi. 1611-yilning fevral oyi oxirlarida Imomqulixonni amirlar oq namatga o‘tkazishib xon qilib ko‘tarishadi. Nodir Muhammad esa Balx viloyatiga noib qilib tayinalanadi. Imomqulixonni taxtga kelishida amirlarning tutgan pozitsiyasi muhim bosqich bo‘ldi, ayniqsa, bular orasida Yalangto‘sbiyning ta’siri katta edi. Shu sababli ham, Bahodir Yalangto‘sning Vali Muhammad xizmatidan ketishi, uning muvaffaqiyatsizlikk uchrashiga sabab bo‘ldi deyish mumkin.

Keyingi voqealardan ko‘rishimiz mumkinki, Eronga shoh Abbos huzuriga qochib borgan Vali Muhammad Imomqulixonga qarshi undan yordam so‘raydi. Shoh Abbos 80 ming kishilik qo‘shinni Imomqulixonga qarshi yuboradi[7.3b]. Bundan xabar topgan Imomqulixon muvaffaqiyatsizlikka uchrashini sezib Balxga qochishni mo‘ljallaydi va Qarshiga borib o‘rnashadi. Bahodir Yalangto‘sning shu vaziyatda barcha amirlarni to‘plab, yagona umumi dushmanga qarshi birgalikda kurashish va Imomqulixonni qo’llab quvvatlashga chaqiradi[3.C107]. Shunday sharoitda Yalangto‘s Bahodir barchani biriktira olgan mohir siyosatchi bo‘lish bilan bir qatorda, harbiy yo‘lboshchi sifatida gavdalanadi. Bularning barchasi yurt tinchligi, davlat chegaralarining daxlsizligi uchun qilingan ko‘zga ko‘ringan ishlaridan biridir.

Bahodir Yalangto‘s Imomqulixon bilan birga davlat mudofasini tashkil etib, Samarqand yaqinidagi Zarman mavzesida bo‘lgan jangda dastlab ular mag‘lubiyatga uchraydi. Natijada, Imomqulixon bir nechta amirlarning maslahati bilan qozoqlardan Abulay sulton va Eshim sultonlardan yordam olishga majbur bo‘ladi. Lekin ulardan Vali Muhammad ham yordam so‘ragan edi. Shu tariqa, Imomqulixon va Yalangto‘sbiy ikki dushmanga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘ladi. Keyinchalik ular birgalikda qizilboshlilar ustidan g‘alaba qozonishadi. Abulay Sulton Samarqand atroflarini talab, Turkiston tomonga qaytib ketadi. Lekin, Miyonqol hududlarda Eshim sulton xavfini bartaraf etish Imomqulixon oldida turgan jiddiy muammo edi. Shu vaziyatda, u Yalangto‘s Bahodir va Shukurbiy saroy bilan maslahatlashib, Eshim sultonga Turkiston va Toshkent atrofidagi yerlarning bir qismini berib, xavfni bartaraf etadi.

Demak, Imomqulixon tashqi siyosat masalalarini hal etishda Yalangto‘s Bahodir bilan maslahatlashib ish ko‘rgan. Bu esa tashqi masalalarda Yalangto‘sbiyning salohiyati yetarlicha ekanligidan dalolat beradi. Buxoro xonligida Imomqulixon davri eng rivojlangan va mamlakatning kuchaygan davri hisoblanadi. Shu o‘rinda, mamlakat tinchligini saqlashga qo‘shgan hissasi va hokimyatni egallashda yordam bergani uchun Imomqulixon Yalangto‘s Bahodirni 1612-yildan Samarqand hokimi etib tayinlaydi. Keyinchalik u otaliq mansabiga tayinlangan, bu lavozim o‘rtasida eng yuqori darajaga ega bo‘lib u hukmdorning otasiga tenglashtirilgan. Shu bilan birgalikda, bu lavozimga xonlik hududi bo‘ylab suv taqsimotini

nazorat qilish topshirilgan, o‘z o‘rnida bu mansab bosh vazirlik darajasiga tenglashtirilgan bo‘lib, unga faqat o‘zbek urug‘laridan bo‘lgan shaxslar tayinlangan[8.3b].

Yalangto‘s Bahodir mamlakat tinchligi va chegara shaharlar daxlsizligini saqlab qolishda asosiy harbiy kuch vazifasini o‘tagan bo‘lishi mumkin. Chunki, “Tarixi Muqimxoniy” asarida yozilishicha, Imomqulixon Balx mustaqilligini saqlab qolish uchun Nodir Muhammadga yordam berish maqsadida Yalangto‘s Bahodir boshchiligidagi amirlar, yuqori martabali harbiylarni safarbar etganligi ta‘kidlab o‘tiladi. Otaliq lavozimida faoliyat yuritgan amir Yalangto‘s mamlakat ichidagi muhim tadbirlarni amalga oshirgan. Xususan, u tomonidan berilgan ishonch qog‘ozi yoki tilxat davlat xazinasi tomonidan berilgan ishonchnomaga teng darajada bo‘lgan[6.3b].

1642-yilda Imomqulixon ko‘zi xastalanib qolishi bilan, xaj safariga ketishga taraddudlana boshlaydi. Shu vaziyatda Yalangto‘s Bahodir boshchiligidagi ko‘plab amirlar Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan Nodir Muahmmadni Buxoroga chaqirib oladi va hokimyatga xon qilib ko‘tarishadi[3.c109]. Nodir Muahmmad davrida Yalangto‘s shbiy bilan munosabatlarda o‘zgarish yuz beradi. Bunga sabab qilib, “Silsilat at salotin” asarida aytishicha, Nodir Muahmmad valiahdlik davrida o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan safdoshlarni saroy xizmatiga yollashi, Bahodir Yalangto‘s shning Kohmard viloyatidagi hokimligini bekor qilib, uning o‘rniga boshqani tayinlagani va “otaliq” lavozimiga o‘zining yaqini bo‘lmish Abdurahmon devonbegini tayinlaganligi sabab qilib ko‘rsatiladi.

Bu munosabtlarining sovuqlashib borishi natijasida, Nodir Muhammad ko‘p vaqt davomida taxtni boshqarmadi. 1645-yilda bir guruh amirlar uning Qarshi atrofida ovda yurganligidan foydalanib, Xo‘jandda unga qarshi isyon ko‘tarishadi. Bunga esa Yalangto‘s Bahodir boshchilik qiladi. Bitim tuzish maqsadida yuborilgan Abdulaziz sultonni qo‘zga’lonchilar qo‘lga olib, Oqtepa degan joyda uni xon qilib saylashadi. Natijada, Buxoro shahri uch oy davomida qamal qilinadi va Nodir Muhamamd shahardan chiqib ketishga majbur bo‘ladi[3.c136]. Bu vaziyatdan foydalangan Hindiston hukmdori Shohjaxon Balxni bosib oladi. Buxoro va Hindiston munosabatlari ziddiyatlashuvi Yalangto‘s Bahodirning mohirona diplomatiyasi orqali hal etiladi. Jumladan, u Nodir Muhammadga yordamga kelayotgan Eron askarlari hamda, Toshkentdan Buxoro tomon harakatlanayotgan qozoqlardan Yangir sulton bilan bitim tuzib, bu ikkkala kuchni Balxni bosib olgan hind qo‘shtiniga qarshi yo’llaydi. Natijada hindlar qo‘shtini Balxdan haydab chiqariladi. Mashhad yaqinida turgan Nodir Muhamamdga yana Balx viloyati beriladi, Yangir sulton Toshkent tomonga qaytib ketadi. Natijada, ikki o‘rtada vujudga kelgan vaziyatni hal qilish uchun Yalangto‘s shbiy, qozoq-eron harbiy ittifoqidan mohirona foydalanadi. Xattoki, u qozoq sutoni bilan janga ketayotgan Abdulaziz sultonga qozoqlar bilan jang qilmasdan, bitim tuzish kerak degan topshiriqni yuboradi. Ko‘rinib turibdiki, Bahodir Yalangto‘s shdek diplomatlarning yuritgan oqilona siyosati tufayli, tashqi dushmanlar bilan aloqalarda ustunlik Buxoro xonligi tarafda bo‘lgan. Ahamiyatli jixati shundaki, zarur paytlarda u ashtarxoniy hukmdorlarga o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan.

Abdulaziz sulton hukmronlik davri ichki qabilalarning markaziy hokimyatga bo‘ysunmasligi va ichki nizolarning kuchayganligi bilan ajralib turadi. Bularni bostirishda ham Yalangto‘s Bahodir jonbozlik ko‘rsatib, o‘zining faol aralashuvi orqali hal qilgan. U bir necha bor mustaqil ravishda qo‘shti davlatlarga yurishlarni amalga oshirgan. Jumladan, Eronning Huroson viloyatiga, Afg‘oniston, Toshkent va Turkiston yerlariga safarbarliklar uyushtirib u yerdagи mahaliy nizolarni tinchlantirgan. Shu sababli ham, qo‘shti davlatlardan unga ko‘plab

sovg'a salomlar yuborishgan[5.2b]. Mahmud ibn Vali Yalangto'shibiyni xondan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi boy shaxs sifatida, uning mol-mulkini esa davlat xazinasiga qiyoslaydi[2.228b]. Bu tahlillar natijasida Bahodir Yalangto'shning mol-mulki davlat xazinasi misolida qiyoslanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin

Xulosa va takliflar

Yalangto'shibiy Bahodir 1612-1632, 1633-1642, 1645-1656-yillarda, ya'ni umumiy hisobda qirq yil davomida Imomqulixon, Nodir Muhammad va Abdulazizzon davrida Samarqandni boshqardi. Shu bilan bir qatorda, Afg'onistonning markaziy hududlariga to'g'ri keluvchi Kohmard viloyatini ham hokimi bo'ldi. U faoliyati davomida hukmdorlarga amalda bo'ysunmadи, mustaqil yurishlar olib borishi, tashqi masalalarda xonlarga topshiriqlar berishi, uning xondan keying o'rinda davlatni boshqargan shaxs sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsa ham, ashtarxoniy hukmdorlarga astoydil xizmat qildi, mamalakat daxlsizligi, ichki siyosatdagi barqarorolikni ta'minlashda, eng ziddiyatli paytlarda o'zini mohir yo'lboshchi va sarkarda sifatida namoyon etib, o'zining munosib hissasini qo'shdi. Bu esa bugungi kungacha davlatchilik taraqqiyotida Yalangto'shibiy faoliyatini o'rganilishi lozimligini isbotlab beradi. U 1656-yil 80 yoshida vafot etdi va o'zining vasiyatiga ko'ra Dahbeddag'i Mahdumi A'zam xonaqohiga , piri Xoja Hoshim qabrining oyoq tomoniga dafn etildi. Zarur vaqtarda Yalangto'shibiy hukmdor nomidan ham qarorlar chiqarganligini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin. Tarixiy shaxslarning faoliyatini o'rganish mazkur davrdagi siyosiy voqealarni sharhlashga, tarixning noma'lum jixatlarini ochishga yordam beradi. Shunday ekan, ko'plab tarixchilar tomonidan bunday tadqiqot mavzularini personografik jixatdan tahlil qilish tavsiya etiladi. To'plangan tarixiy faktlar va bildirib o'tilgan fikrlar mavjud adabiyotlarni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishi va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ko'mak berishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария.www.ziyo.com kutubxonasi.
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент: "Ўқитувчи",1994.
3. Ахмедов Б. История Балха.(XVI- первая половина XVIII в).-Ташкент: "Фан",1982.
4. Азамат Зиё. Ялангтӯш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил , 3-март.44-сон.
5. Каттаев К. Амир Ялангтӯш Баҳодир. Баҳодир Ялангтӯшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни" мавзусидаги халқaro конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
6. Муқимов З. Баҳодир Ялангтӯшнинг давлат фаолиятининг ўрганилишига доир. Баҳодир Ялангтӯшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни" мавзусидаги халқaro конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
7. Мухаммед Юсуф Муншию Муким-ханская история.Перевод с таджикского ,предисловие,примечание и указатели профессора А.А.СЕМЕНОВА.- Ташкент:Академии наук Узбексктй ССР,1956.
8. Сангирова Д. Ялангтӯш Баҳодирнинг Марказий Осиё ижтимоий сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни. Баҳодир Ялангтӯшнинг Марказий Осиё ижтимоий-

сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.

9. Таниева Г.Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни.Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
10. Хидирова Н.У. Баҳодир Ялангтўш шахсига доир чизгилар// Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019
11. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi.-Toshkent:”BAYOZ”, 2021.
12. Chabryar Adle and Irfan Habib.History of civilizations of central Asia/ Volume V.-UNESCO Publishing.2003.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**
Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).